DEFEKTOLOGIYA VA LOGOPEDIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

https://doi.org/10.5281/zenodo.6287158

Ashirmatova Diloram Nigmatillaevna
Toshkent shahar Yunusobod tumani 560- sonli davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi defektologi
Atayeva Kamola Abduvaliyevna
Toshkent shahar Yunusobod tumani 560-sonli davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi
Azizova Dildora Abrorovna
Toshkent shahar Yunusobod tumani 560-sonli davlat ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi defektologi

Annotatsiya: *ushbu maqolada nutq buzilishlari sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari, tarkib,i maxsus pedagogika, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalar, logopediya fanining maqsad va vazifalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mexanizmlar, nutq sabablari, alomatlari, oqimlar, tarkib, buzilishlar, logopediya.*

Logopediya bu — nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta'lim va tarbiya vositasida nutq buzilishlarini o'rganish, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandir. Logopediya nutq faoliyati buzilishining sabablari, mexanizmlari, alomatlari, oqimlari tarkibini o'rganadi. Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo'shadilar.

"Logopediya" termini grekcha "logos" (so'z, nutq), "peydeo" (tarbiyalayman, o'qitaman) so'ziaridan tashkil topgan bo'lib, tarjimada to'g'ri "nutqni tarbiyalash" ma'nosini anglatadi. Fan sifatida logopediya nutq nuqsonini tuzatish, nutqiy faoliyati zaiflashgan shaxslarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni hisoblanadi.

Logopediyani o'rganish obyekti - nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxs. Adabiy tilda qabul qilingan nutq normasidan biroz bo'lsa ham chetga chiqish - bu nutq nuqsoni hisoblanadi. Zamonaviy logopediya strukturasi maktabgacha yoshli, maktab bolalar logopediyasi, o'smirlar va katta yoshdagilar logopediyasiga bo'linadi. Defektologiya – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalarning psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan

fandir. “Defektologiya” so‘zi lotincha “defekt” – kamchilik, nuqson, yunoncha “logos” – ta’limot, fan, o‘rganish degan so‘zlardan olingan. Ruhiy yoki jismoniy rivojlanishida kamchiliklari bor bolalar alohida yordamga muhtoj bolalar deyiladi. Har qanday fanning o‘z predmeti, maqsadi, vazifalari bo‘lgani kabi, defektologiya fanining ham o‘z predmeti, maqsadi, vazifalari mavjud.

Logopediya fanining quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyatining ontogenezini o'rganish;

2. Nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, alomatlari va darajalarini aniqlash;

3. Nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o‘z o'zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko'rinishdagi faoliyatlarini namoyon qilishga, o'zlarini tutishlariga ta'sirini aniqlash;

4. Rivojlanishida turli xil farqlar bo’lgan bolalarda (eshitish, ko‘rish, fikrlash qobiliyatining hamda tayanch harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va nutq buzilishlari xususiyatini o'rganish;

5. Nutq buzilishining kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi va alomatlarini aniqlash;

6. Nutq buzilishlarining pedagogik tashxisi, metodlarini ishlab chiqish;

7. Nutq buzilishlarini tartibga solish;

8. Nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metodlari va vositalarini ishlab chiqish;

9. Nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish;

10. Logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish.

Defektologiya fanining maqsadi – alohida yordamga muhtoj bolalar uchun differensial yoki inkluziv ta’limni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni o‘rganish, ulardagi psixofiziologik kamchiliklarni iloji boricha bartaraf etish, tuzatish yoki bilinmaydigan holga keltirish usullarini belgilash va amaliyotda tatbiq etish yo‘llarini tarbiyachi hamda o‘qituvchilarga ko‘rsatib berishdan iborat.

Bola rivojlanishidagi kamchiliklar har xil bo‘ladi, ularning ba’zilari batamom bartaraf etiladi, ba’zilari bir qadar tuzatiladi, korreksiyalanadi, bilinmaydigan holga keltiriladi, boshqalari esa kompensatsiyalanadi. Masalan, bola nutqida og‘ir nuqson bo‘lsa, ilk yoshda to‘g‘ri tashkil etilgan logopedik chora-tadbirlar ta’sirida ularni to‘liq bartaraf etish mumkin.

Boladagi nuqson markaziy asab sistemasidagi organik kamchiliklar natijasida paydo bo‘lgan bo‘lsa (masalan, aqliy rivojlanishdagi nuqsonlar shunday nuqsonlar jumlasiga kiradi), uni to‘liq bartaraf etib bo‘lmasa ham, biroq kamaytirish, ko‘zga ko‘rinmaydigan, sezilmaydigan darajagacha tuzatish mumkin. Defektologiya amaliyotida yana shunday nuqsonlar uchraydiki, ularni tuzatib ham, korreksiyalab ham bo‘lmaydi, masalan, tug‘ma ko‘rlik yoki karlikning ayrim turlari shular jumlasidandir. Bunda ko‘rish analizatorining vazifasini sezgi organlariga, eshitish analizatorining vazifasini esa ko‘rish analizatoriga yuklash, ya’ni kompensatsiyalash, o‘rnini bosish mumkin. Ko‘rish qobiliyati zaif bolalar sezgi organlariga tayangan holda barmoqlari bilan Brayl shriftidan foydalanadilar.

Bunda harf olti nuqta kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Eshitish qobiliyati zaif bolalar esa imo-ishora, daktil nutqdan, barmoqlar harakati bilan anglatiladigan nutqdan foydalanishlari mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, logopedik jarayonni tashkil etish nutq buzilishini to‘g‘rilash bilan bir qatorda psixofizik nuqsonlarni ham tugatish yoki yengillatish uchun sharoit yaratadi. U pedagogik ta'sir qilishning muhim maqsadi bo‘lgan shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. “Logopediya” (L.S.Volkovalahririostida). – M. 1989.
2. Majidov. “Nevrepotologiya” - T.,1986.
3. Shomaxmudova R.Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish . — T., 1994 .
4. Mo'minova L.R. Tutilib gapiruvchi o'smirlar uchun qo'llanma. "O'qituvchi". — T ., 1980.
5. https://ziyouz.com/
6. https://hozir.org/